ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

УДК: 657.1:332.7-047:32(575.1)

BUXGALTERYA HISOBIDA PUL OQIMLARI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNING IQTISODIY MOHIYATI VA AXBOROT MANBAI SIFATIDAGI AHAMIYATI

Xudayberdiyev Begzot Ergashevich
SamISI talabasi
Tel: (99)-447-54-84.
E-mail: bekzodergashevichxudayberdiev@gmail.com
Raxmonova Yulduz Sharafitdinovna
SamISI PhD katta o‘qituvchisi Ilmiy rahbari
Tel: (97) 446-03-60
E-mail: raxmanova_yulduz@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish tartib-qoidalarini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot xalqaro hisobot standartlari, xususan, Xalqaro buxgalteriya hisobi standarti doirasida ushbu hisobotning ahamiyatini, uni tayyorlashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita usullarini, tasniflash tamoyillarini va moliyaviy hisobot tizimidagi o‘rnini yoritadi. Maqolada asosiy e’tibor hisobotning shaffofligi, ishonchliligi va moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Pul oqimlari hisoboti, to‘g‘ridan-to‘g‘ri usul, bilvosita usul, moliyaviy hisobot, operatsion faoliyat, investitsiyaviy faoliyat.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the procedures for preparing and presenting a cash flow statement. The study highlights the importance of this report within the framework of international reporting standards, in particular, International Accounting Standards, direct and indirect methods of its preparation, classification principles, and its place in the financial reporting system. The article focuses on increasing the transparency, reliability, and importance of the report in making financial decisions.

Keywords: Cash flow statement, direct method, indirect method, financial reporting, operating activities, investing activities.

Аннотация. Данная статья глубоко анализирует процедуры составления и представления отчета о денежных потоках. Исследование освещает значение данного отчета в рамках международных стандартов отчетности, в частности, Международного стандарта бухгалтерского учета, прямые и косвенные методы его подготовки, принципы классификации и место в системе финансовой отчетности. В статье основное внимание уделяется повышению прозрачности, надежности и важности отчетности в принятии финансовых решений.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: отчетность денежных потоков, прямой метод, косвенный метод, финансовая отчетность, операционная деятельность, инвестиционная деятельность.

KIRISH.

Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida korxonalarda ko‘chmas mulklar, jumladan investitsiyaviy pul okimlari tugrisidagi hisobotini takomillashtirishga oid ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot korxonaning moliyaviy holati va faoliyati natijalari to‘g‘risidagi boshqa asosiy moliyaviy hisobotlarga, ya’ni moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot (balans) va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotga (daromadlar va xarajatlar to‘g‘risidagi hisobot) muhim qo‘shimcha bo‘lib xizmat qiladi. U muayyan hisobot davrida korxonaning pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining kelib tushishi va chiqib ketishi haqida batafsil ma’lumot beradi. Ushbu hisobot, daromadlar to‘g‘risidagi hisobotdan farqli o‘laroq, pul mablag‘lari harakatini akkrual usulida emas, balki kassa usulida aks ettiradi, bu esa haqiqiy pul tushumlari va to‘lovlarini farqlash imkonini beradi. Pul oqimi to`g`risidagi xisobotdan asosiy maqsad korxonaning likvidligi va moliyaviy moslashuvchanligini baholash uchun muhim ma’lumotlarni taqdim etishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Pul oqimi xisoboti va tahlili yo‘nalishi bo‘yicha dunyo bo‘yicha juda ko‘p olimlar turli xildagi izlanishlar o‘tkazishgan. Xususan, rus olimlari L.V.Panferova va N.V.Petuxova tomonidan e’lon qilingan “Pul oqimi to‘g‘risidagi xisobot buxgalteriya – moliya xisobotining asosiy ko‘rinishi sifatida” nomli maqolasida pul oqimi xisoboti tushunchasi AQShda 1863 yilda “Dowlais Ironworks” kompaniyasi buxgalteri tomonidan kompaniyaning qo‘shimcha daromad manbalarini topish uchun yaratilganligi hamda hozirgi ko‘rinishda 1988 yilda ishlab chiqilganligi, shuningdek, pul oqimi to‘g‘risidagi xisobot “MSFO-7” buxgalteriya tizimi bilan xamkorlikda amalga oshirilishi ko‘rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Investitsiyalarni (masalan, bandlar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) pul mablag‘lari ekvivalenti sifatida ko‘rsatish uchun, bu investitsiyalarni tashkilot istagan vaqtda ahamiyatli jarimasiz (masalan, erta yoki muddatidan oldin so‘ndirish uchun olinadigan jarimalar kabi) pul mablag‘lariga aylantira olishi mumkin bo‘lishi kerak. Agar tashkilotning qisqa muddatli omonati katta kredit-riskka (ya’ni kontragent majburiyatini yopa olmaslik riskiga) duchor qilsa, ushbu omonatni pul mablag‘lari ekvivalenti ichiga qo‘shib bo‘lmaydi. Standartning 7-bandida hech qanday investitsiyalar (kapitalga, aksiyalarga, ustavdagi ulushga ega bo‘lganda) pul ekvivalenti sifatida

ISSN 3030-3907

tasniflanmasligi ta’kidlangan. Buning sababi shundaki, ularda odatda qiymat o‘zgarishi riski yuqori.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot tashkilotning hisobot davri davomida pul oqimini ko‘rsatadigan va tushuntiradigan jadvaldir. Ushbu jadvalni operatsion faoliyat, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyat kabi uchta toifadagi pul oqimlariga bo‘lish kerak: Operatsion faoliyatdan keladigan pul oqimlariga 7-son BHXS, 6-bandi operatsion faoliyatni "tashkilotning asosiy daromad keltiruvchi faoliyati, hamda investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat turlari" deb ta’riflaydi. Operatsion faoliyatdan olingan pul oqimi quyidagi ma’lumotni berishi mumkin:

-Agar operatsion faoliyatning pul oqimlari ijobiy bo‘lsa, bu tashkilot o‘zining operatsion faoliyatini saqlab turishi va hattoki investitsiya faoliyati (asosiy vositalar sotib olish, obligatsiyalarga investitsiya kiritish) yoki moliyaviy faoliyat (dividend to‘lash, kreditlarni to‘lash) uchun zarur pul mablag‘larini ajrata olishi mumkinligini bildiradi:

-Agar operatsion faoliyatning pul oqimlari salbiy bo‘lsa, bu tashkilot operatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun investitsiya faoliyatidan (masalan, investitsiyalardan tushgan dividend daromadlari, investitsiyalarni sotish) yoki moliyaviy faoliyatdan (masalan, kredit olish) qo‘shimcha pul mablag‘lari talab qilinishi kerakligini anglatishi mumkin.

Operatsion faoliyatning pul oqimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) yoki bilvosita usul yordamida tayyorlanishi mumkin. Hisobot qay usulda tayyorlangan bo‘lishiga qat’i nazar, har bir sarlavha ostida (operatsion, investitsion, moliyalashtirish) ko‘rsatilgan jami summalarga ta’sir ko‘rsatmasligi kerak. 7-son BHXS 6-bandi investitsiya faoliyatini "uzoq muddatli aktivlarning va pul mablag‘lari ekvivalentlariga kirmaydigan boshqa investitsiyalarning xarid qilinishi va hisobdan chiqarilishi" deb belgilaydi.

Investitsiya faoliyatiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va investitsiya ob’ektlarini harid qilish uchun to‘lovlar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va investitsiya ob’ektlarini sotishdan tushgan pul oqimi, boshqa tashkilotlarning ulushiga bo‘lgan yoki obligatsiyalar, bandlarni harid qilish uchun to‘lovlar, boshqa tashkilotlarning ulushiga bo‘lgan investitsiyalarni yoki obligatsiyalar,bondlarni sotishdan kelib tushadigan mablag‘lar, investitsiyalardan olingan dividendlar, sho‘ba korxona harid qilish uchun bo‘lgan sof to‘lovlar, sho‘ba korxona sotilgandan kelgan sof tushum kabi quyidagi pul oqimlari kiradi.

OLINGAN NATIJALAR: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida buxgalteriya hisobida pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning iqtisodiy mohiyati va uning axborot manbai sifatidagi ahamiyati har tomonlama asoslab berildi. Xususan, mazkur

ISSN 3030-3907

hisobot korxonaning real pul tushumlari va chiqimlarini aks ettirish orqali uning likvidligi, to‘lovga qobiliyati hamda moliyaviy barqarorligini baholashda muhim vosita ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot boshqa moliyaviy hisobot shakllari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bilan birgalikda korxonaning moliyaviy holatini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, ushbu hisobotning kassa usuliga asoslanganligi sababli u foyda ko‘rsatkichlaridan farqli ravishda haqiqiy pul harakatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat turlari bo‘yicha tasniflash korxona faoliyatining samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini berishi isbotlandi. Operatsion faoliyatdan ijobiy pul oqimlarining mavjudligi korxonaning o‘z faoliyatini mustaqil moliyalashtirish imkoniyatini ifodalashi, salbiy holat esa qo‘shimcha moliyaviy manbalarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatishi aniqlab berildi.

Tadqiqot davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita usullarni qo‘llash amaliyoti o‘rganilib, bilvosita usulning amaliyotda kengroq qo‘llanilishi, biroq to‘g‘ridan-to‘g‘ri usulning axborot shaffofligi yuqoriligi bilan ajralib turishi asoslab berildi. Shu bilan birga, pul oqimlari hisobotining ishonchliligini ta’minlashda audit va ichki nazorat tizimlarining muhim o‘rni mavjudligi tasdiqlandi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda pul oqimlari hisobotini yuritish tizimi asosan xalqaro standartlarga yaqinlashgan bo‘lsa-da, uni yanada takomillashtirish, xususan MSFO-7 talablarini chuqur joriy etish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati mavjud.

Umuman olganda, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot korxonalarda samarali boshqaruvni tashkil etish, moliyaviy qarorlar qabul qilish va investitsion jozibadorlikni oshirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim axborot manbai hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIF: Tadqiqot davomida olib borilgan o‘rganishlar mamlaktimizda hozirda pul oqimi to‘g‘risidagi xisobotning milliy tizimi asosan xalqaror standarlarga suyanib qolganligini hamda pul oqimi to‘g‘risidagi xisobot yuqorida keltirilgan milliy standart asosida olib borilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu sababli, milliy tizimni takomillashtirish hamda ushbu jarayonga zamonaviy texnologiya yutuqlarini joriy qilish orqali zamonaviylashtirishimiz lozim. Bundan tashqari, bugungi kunga kelib buxgalteriya xisobi milliy standartlarini ishlab chiqish jarayonida “MSFO-7” tizimi xisobga olinmasdan

ISSN 3030-3907

ishlab chiqilgan hamda bugungi kunga kelib Respublikamizda ushbu tizim bo‘yicha mukammal bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan mutaxassislar etishmovchiligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, pul oqimi to`g`risidagi xisobotni tayyorlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita usullar mavjud bo‘lib, har birining o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari bor. To‘g‘ridan-to‘g‘ri usul yuqori shaffoflikni taklif qilsada, amaliyotda bilvosita usul ko‘proq qo‘llaniladi, chunki uni tayyorlash osonroq. Har ikkala usulda ham pul oqimlarini uchta faoliyat turiga to‘g‘ri tasniflash hisobotning dolzarbligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pul oqimi to`g`risidagi xisobotning auditi uning ishonchliligi va standartlarga muvofiqligini tasdiqlashda muhim ahamiyatga ega. Auditorlar pul oqimlarining to‘liqligi, aniq tasniflanishi, taqdimoti va oshkor etishlarning to‘g‘riligini tekshirish uchun turli tartib-qoidalarni qo‘llaydilar. Kuchli ichki nazorat tizimlari pul oqimi to`g`risidagi xisobotning sifati va ishonchliligini ta’minlashda markaziy rol o‘ynaydi. Amaliyotda, pul oqimlarini tasniflashda hukm qilish zarurati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri usulni qo‘llashdagi murakkabliklar va etarli ichki nazoratning yo‘qligi kabi qiyinchiliklar mavjud. Ushbu qiyinchiliklarni engish uchun buxgalteriya siyosatlarini aniq belgilash, ichki nazoratni mustahkamlash, rahbarlik va auditorlar o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash, shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish kabi eng yaxshi amaliyotlarni qo‘llash tavsiya etiladi. Kelajakda raqamli hisobot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq pul oqimlarining ahamiyati va standartlarning doimiy takomillashuvi pul oqimi to`g`risidagi xisobotni tayyorlash va audit qilish amaliyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar pul oqimlari hisobotining yanada shaffof, samarali va ishonchli bo‘lishiga xizmat qiladi, moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun yanada qimmatli ma’lumotlar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, https://lex.uz/docs/5841063

2. Добрынина А.И., Тарасевича Л.С. Экономическая теория. 4-е изд. – СПб.: 2009. 560-б. 3.Смаглюкова Т.М. Общие подходы к формированию регионалной инвестиционной политики // Современные проблемы науки. – 2014. – № 1

3. O‘zbekiston moliyaviy hisobotlarning milliy standartlari loyihasi // https://imv.uz/media/budget_activity_files/MHXS Loyiha. pdf

4. Robin Djoys . Uchebnoye posobiye po MSFO (2017) http://finotchet.ru/articles/1272/

ISSN 3030-3907

5. S.N. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. T.: 2019. -584 b.
6. Eshonqulov A.Q. "Pul oqimlari hisoboti auditi" (2024). Cyberleninka va boshqa ilmiy bazalarda mavjud bo‘lib, hisobotning axborot imkoniyatlarini tahlil qiladi.
7. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni. (Yangi tahriri, 2016-yil 13-aprel). Mazkur qonun barcha moliyaviy hisobot turlari, shu jumladan pul oqimlari hisobotining huquqiy asoslarini belgilaydi.
8. 9-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) "Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot". (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 3592-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan yangi tahriri). Bu hujjat hisobotni tuzish tartibi, operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyat turlari bo‘yicha pul oqimlarini tasniflashning asosiy manbaidir.
9. 14-sonli O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (BHS) "Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot". (2022-yil 2-noyabrdagi 3396-sonli hujjat). Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari harakatini hisobga olish xususiyatlarini yoritadi.
10. "Soliqlar va bojxona xabarlari" hamda "Buxgalter" jurnallari. Ushbu nashrlarda pul oqimlari hisobotini shakllantirishdagi so‘nggi o‘zgarishlar va amaliy tavsiyalar muntazam berib boriladi.

ISSN 3030-3907